
DXX RAISI KUBOGI: VAKILLARIMIZ VILOYAT BOSQICHI FINALIDA

Ma'lumki, mamlakatimiz bo'ylab "Mahallalarda yoshlar bilan yangicha ishlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-92-sonli qarori, Mahallalarda yoshlar bilan ishlash masalalarini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika komissiyasining 2022 yil 18 martdagi topshirig'i ijrosini ta'minlash, jumladan mahallalarda yoshlarni madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari va kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan besh tashabbusni joylarda keng targ'ib etish, ularni ma'naviy va jismoniy barkamol qilib turbiyalashga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy, ommaviy sport tadbirlarini o'tkazish, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish rejalashtirilgan. Xususan, futbol bo'yicha "Davlat xafsizlik xizmati raisi kubogi" musobaqasi o'tkazilmoqda. Bugun ushbu musobaqaning viloyat bosqichi yarim final uchrashuvlari bo'lib o'tdi. Viloyat bosqichi ikki mintaqada o'tkazilib, mintaqalarida birinchi va ikkinchi o'rinni olgan jamoalar yarim finalga yo'llanma olishdi. Yarim final bahsining birida - «Bo'ston» (Rishton) - «Ustoz» (Oltiariq) mahallasi yoshlar jamoalari maydonga tushishdi. Shiddatli o'tgan uchrashuvda rishtonlik yoshlar 3:1 hisobida g'alaba qozonishdi va finalga yo'llanma olishdi. Vakillarimizga final bahsida omad tilab qolamiz.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-07-06 06:46:09